

CHET TILINI O'RGANISHNING INTERAKTIV USULLARI

Nafisa Mirzabekova Abdumalik qizi

Xalqaro Westminster Universiteti qoshidagi akademik litsey

Fransuz tili o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet til orqali ta'lim-tarbiya berish jarayoni va usullari, chet tilini o'rgatish ilmi, muallim va o'quvchi faoliyatini o'rganish metodi jumladan chet tilini o'qitish metodikasi haqida, chet tilini o'qitish metodikasida qo'llanilayotgan zamonaviy metod turlari va ulardan foydalanish xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: metodika, innovatsiya, chet tili, kommunikatsiya, ko'nikma, malaka, didaktika.

Abstract: This article deals with the process and methods of teaching through a foreign language, the science of foreign language teaching, the method of studying the activities of teachers and students, the methodology of teaching a foreign language, the methods of teaching a foreign language types of modern methods and their use.

Keywords: methodology, innovation, foreign language, communication, skill, qualification, didactics.

Аннотация: В данной статье рассматриваются процесс и методы обучения через иностранный язык, наука об обучении иностранному языку, методика изучения деятельности преподавателей и студентов, методика обучения иностранному языку, виды современных методов и их применение.

Ключевые слова: методика, инновация, иностранный язык, общение, умение, квалификация, дидактика.

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, istiqlolning ilk yillaridanoq O'zbekiston demokratik hayot qurishga kirishdi. Iqtisodiyot ham muhim ahamiyat kasb etdi. Amalga oshirilgan islohatlar salmog'i yildan yilga kerak bo'lsa, kundan kunga ortdi. Faqat tub islohatlar emas balki boshqa javhalarda jumladan, ta'lim tizimida ko'plab o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ayniqsa chet tillarini o'rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko'plab sharoitlar yaratilib berildi. Bundan asosiy maqsad yoshlarning bilim saviyasini oshirish, chet tiliga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, "Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatlarimiz uchun chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir". Jumladan shu fikrlarning davomi sifatida 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini" o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi

Prezident Qarori qabul qilindi. Ushbu qaror chet tillarini o'rganish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Bugungi kunga kelib chet tiliga bo'lgan talab judayam ortib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Chet tili darsi ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi, bu yerda sinf o'qituvchi va talabalar bir-biri bilan muayyan ijtimoiy munosabatlarga kirishadigan, o'quv jarayoni barcha ishtirokchilarning o'zaro ta'siri bo'lgan ma'lum bir ijtimoiy muhitdir. Shu bilan birga, o'rganishdagi muvaffaqiyat o'rganish uchun barcha imkoniyatlardan jamoaviy foydalanish natijasidir. Talabalar esa bu jarayonga katta hissa qo'shishlari kerak. Barcha tasniflarda bilimlarni og'zaki bayon qilish usullari mavjud. Bularga hikoya, tushuntirish, tushuntirish, suhbat, brifing kiradi. Og'zaki usullar o'rganishning barcha bosqichlarida qo'llaniladi: yangi materialni o'zlashtirishga tayyorgarlik paytida, uni tushuntirish, o'zlashtirish, umumlashtirish va qo'llash jarayonida. Hikoya - o'qituvchi tomonidan o'quv materialining majoziy, rang-barang, jonli monologik taqdimoti. Bu usul ko'pincha quyi sinflarda qo'llaniladi. Bolalarga ular uchun yorqin, yangi faktlar, voqealar, bolalar bevosita kuzata olmaydigan narsalar haqida ma'lumot berish kerak bo'lganda, o'qituvchi hikoyaga murojaat qiladi. Hikoya kichik yoshdagi o'quvchilarning aqliy faoliyati, tasavvurlari, his-tuyg'ulariga ta'sir qilishning kuchli manbai, dunyoqarashini kengaytiradi. Agar hikoyada passiv usulning belgilari ko'proq bo'lsa, tushuntirish bolalar uchun ochiq bo'lgan murakkab masalalarni izchil, mantiqiy, aniq taqdim etishning faol usuli hisoblanadi. Tushuntirish, albatta, bolalarning ishtiroki, o'z kuzatishlari, eksperimentlar va harakatlar naqshlarini namoyish qilish, illyustratsiya bilan birlashtirilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirgi vatqda nafaqat chet tiliga o'qitish bo'yicha, balki barcha fanlarga o'qitishni, o'rgatishni yangi-yangi metodlarini izlab topish va uni amalda sinab ko'rish to'g'risida ko'p ishlar qilinayapti. Bu hozirgi kundagi ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash uchun hal qilinishi kerak bo'lgan eng muhim muammolardan biridir. Agar avval chet tili o'qitish shu til sistemasini o'rganish deb qaralgan bo'lsa, keyingi yillarda o'qitishdagi muhim ko'zlangan narsa bu o'quvchilarni chet til nutqini o'stirishdan iborat bo'ldi. Shuni aytish kerakki, chet til o'rganishdagi bu maqsadlar, o'z-o'zidan yoki boshqa kimsalar yoki shaxs tomonidan qo'yilmaydi, balki lingvistika va psixologiya fanlaridagi o'zgarishlar va jamiyatning ijtimoiy rivojlanib borishi bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan: Audiolingval metodni olib ko'raylik. Bu metodning yuzaga kelishiga lingvistika fanidagi o'zgarishlar, ya'ni struktural oqimni ta'siri bo'ldi. U quyidagi omillarni o'z ichiga oladi:

- Chet tilini o'rgatish avval og'zaki nutqqa o'rgatishdan boshlanmog'i zarur;
- Til o'rganish turli strukturalar, nutq na'munalari asosida amalga oshiriladi;

- Mashqlar ham tilga asoslangan holda til materialini ko'p marta takrorlashni talab qiluvchi mashqlar bo'lishi kerakligini taqozo etadi;
- Grammatik namunalar va leksikani tanlash chet tili bilan ona tilini qiyoslashning natijalariga bog'liq bo'lishi kerak.
- Talaffuzga katta e'tibor talab etiladi.

Bu metodning asosiy kamchiligi, mexanik mashqlarning ko'pligi va haqiqiy nutq mashqlarining ozligidir. Bu metod asoschilari metodist olimlar Ch.Friz va R.Ladolardir. Masalan: Ch.Friz: boshlang'ich etapning asosiy mazmuni strukturalarni o'rganishni tashkil qilishi kerak deydi. Grammatikaning ko'nikmalarni hosil qilish xam shunga asoslangan bo'lishi maqsadga muvofiq[Sh Alimov 2017.2-bet]. Zamonaviy jamiyatda chet tillari kasbiy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Turli sohalardagi mutaxassislarda chet ellik hamkorlar bilan hamkorlik qilish ko'rsatkichi yuqori bo'lganligi sababli, ularda til o'rganishga bo'lgan talab yuqoridir. Hozirda chet tillari maktab, kollej, litsey, oliy ta'lim muassasalarida o'rgatilmoqda. Turli darajadagi til bilimiga ega bo'lmoqchi bo'lganlar uchun o'quv materiallarning inavatsion turlari mavjud. Chet tilini mukammal bilish va ma'lum darajani olish o'qituvchilarning amaliy usullari va malakasiga ham bog'liq. Axborot texnologiyalari va zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish qobiliyati yangi materiallarni tezkor tushunishga yordam beradi. Turli usullarni birlashtirib o'qituvchi muayyan ta'lim dasturlarini yechishga qodir bo'ladi. Shu munosabat bilan o'qituvchilar va talabalar xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy usullari bilan tanishishlari kerak. Natijada maqsadlariga erishish uchun eng samarali usullarni tanlay bilish ko'nikmalari shakllanadi. Bunda o'qitish va o'rganishning bir necha metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Zamonilgarilab borganisarihar bir sohada yangilik ko'paymoqda. [Feruza Zaipova, Sabohat O'rinova Xorijiy 2-bet]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, chet tili darslarida innovatsion usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar va o'yinlar o'quvchida bilimga ishtiyoq uyg'otadi. O'quvchi darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi. Bu esa o'quvchilarni ta'lim jarayonining sub'yektlariga aylantiradi. Chet tilini o'qitish jarayonida turli xil jadvallardan foydalanishning ham samarasi yuqoridir. Ta'lim jarayonida jadvallardan foydalanib, o'quvchilar ma'lum bir grammatik qoidani, masalan, zamonlardan foydalanib gaplar tuzish, yangi so'zlarni joylashtirib chiqishi mumkin. Chet tilini o'rganishga ehtiyoj yuqori bo'lgan bir davrda, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, innavatsion ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish bu jarayonni samarali bo'lishiga olib keldi. Innavatsion ta'lim texnologiyalarning samaradorligi ularning ta'lim jarayonida to'g'ri va unumli foydalanilganidadir. [Otoboyeva M.R. 2017.36-37]

Фойдаланилган адабиётлар:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 27 maydagi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi . 8 янв. 2018
2. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. 2012, b-67
3. Отабоева, М. Р. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion
4. "Chet til o'qitish metodikasida zamonaviy metodlar" Zayniddin Sanaqulov
5. Khasanova, Gulsanam Khusanovna MAIN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF EDUCATION AND PROFESSIONAL TRAINING IN THE WORLD // ORIENSS. 2021. №Special Issue 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/main-trends-in-the-development-of-education-and-professional-training-in-the-world> (дата обращения: 05.01.2022).
6. Khasanova, G. K. "THE SUCCESS AND EDUCATION SYSTEM OF SOUTH KOREA AND JAPAN." Наука сегодня: проблемы и пути решения [Текст]: материя (2021): 94.
7. <https://president.uz/oz/lists/view/4327>
8. Хашимова С. On some features of teaching foreign language for students of non-philological areas at the initial stage. – 2019. – Евразийское НаучноеОбъединение. – С. 334-338.